

PUL TUSHUNCHASI VA TURLARI

*Qurbanazarova Gulibonu Navruz qizi
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti,
Fuqarolik va biznes huquqi fakulteti 1- talabasi*

Annotatsiya: Maqolada nafaqat iqtisodiyotda balki, ijtimoiy sohaning barcha tarmoqlarida pul tushunchasi va uning turlari yoritiladi.Pul shunday tovarki, u hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi.Pul umumiyyotovarlarni ayirboshlashda asosiy vazifani bajaradi.Qolaversa, maqolada pulning kelib chiqish va rivojlanish tarixi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: barter, veksel, sivilizatsiya, tanga, valyuta, xaridor, deposit, iqtisodiy, birja, belgilangan qiymat, mo'yna, zargar, tovar, hukumat, don, kafolat, porox, oshirish, qo'shilish, qarz, Lidiyaliklar, mix, rasmiy, diapason, haqiqiy;

Kirish

Pul - bu tushuntirish juda qiyin narsa. Turli mintaqalarda, turlicha madaniyatli odamlar pul haqida turlicha o'ylashadi. Londonlik banker va afrikalik qabilalar pul nima ekanligi haqida turlicha fikrga egadirlar.

Ko'p odamlar pulni metall tangalar va qog'oz pullar ko'rinishidagi valyuta deb o'ylashadi. Pul - bizga hayotda kerakli va keraksiz narsalarni sotib olish uchun zarur. Hattoki qilgan mehnatimiz uchun ham pul olamiz. Demak, pul tovar ayirboshlash usulidir.Pulning tarixiga keladigan bo'lsak, ilk sivilizatsiya davrlarida odamlarda pul mavjud bo'limgan. Ular har xil turdag'i buyumlar bilan savdo qilishgan. Misol uchun ovchida hayvon mo'ynalari keragidan ortiq bo'lgan bo'lsa, qo'shnisi esa ko'proq baliq tutgan.Tez orada ular bir-birlariga muhtoj ekanliklarini ko'rgan. Baliqchi o'zini sovuqdan himoya qilish uchun mo'ynaga muhtoj bo'lgan va ovchiga esa ovqat kerak edi, shu sabab ular mollarini almashishdi. Bu hodisa barter deb ataladi.Lekin barterning ham kamchiliklari bor edi.Misol uchun agar ovching mo'ynalariga muhtoj bo'lgan odamlar qolmasa, u mo'ynalarni kerakli narsalarga almashtira olmasdi.

Vaqt o'tishi bilan odamlar qimmatbaho narsalarni pul sifatida ishlatib kelishdi.

Pulning dastlabki shakllaridan biri chorvachilik edi. Ko'p sigirlari bo'lgan odamlar juda boy deb hisoblangan. Keyinchalik don va tuz pulning keng tarqalgan shakllariga aylandi. Ularning afzalliklari ko'proq edi, chunki odamlar ularni og'irligini ularni tortishlari mumkin edi.

Qadimgi Meksika hududida yashagan asteklar qabilasi kakao loviyalarini pul sifatida ishlatishgan. Ular qimmatli va olib yurish uchun qulay bo'lgan. Amerikaning ilk mustamlakachilari porox, tamaki va mixlarni pul sifatida ishlatishgan. Bu narsalar juda kamyob bo'lgan.

Tangalar

Vaqt o'tishi bilan odamlar tovarlarni sotishning yaxshiroq usullarini qidira boshladilar. Ular metall, ayniqsa oltin va kumush juda qimmatli buyumligini aniqladilar.

Ba'zi bir tarixchilarning fikriga ko'ra, birinchi tangalar miloddan avvalgi 700-yillarda Lidiyaliklar tomonidan yaratilgan. Yunonlar va rimliklar ham kumush va oltin tangalar egasi hisoblanar edilar. Ularning qiymati hukumat tomonidan belgilanardi. Ammo o'rta asrlarning oxirlaridagina butun Yevropada tangalar keng tarqaldi. Shtamplangan metall tangalar ma'lum bir og'irlikda bo'lar edi. Odamlar bir narsa sotib olish uchun qancha tangalar kerakligini bilishardi, chunki ular belgilangan qiymatga ega edi.

Qog'oz pullar

Qog'oz pullar taxminan 300 yil oldin ishlatia boshlangan. Bu g'oya odamlarga oltinlari evaziga qog'oz parchalarini bergan zargarlardan chiqqan. Bu veksellar(qog'oz parchalari)ni keyinchalik oltinga almashtirish mumkin edi.

20-asrning o'rtalariga qadar butun dunyo hukumatlari o'z xalqiga bergan pullari bilan teng oltin konlariga ega edi. Qog'oz pullar esa juda ko'p afzalliklarga ega edi. Buni yasash va olib yurish oson hamda arzon edi.

Ammo xavf-xatarlar ham yo'q emas edi. Hukumat xohlagancha qog'oz pul ishlab chiqarishi mumkin edi. Agar ular juda ko'p banknot ishlab chiqarsa va ularni xalqqa berishsa, ular juda ko'p pul sarflashadi. Agar sotib olish uchun tovar yetishmasa , tabiiyki , narxlar ko'tariladi. Buning oqibatida pul o'z qiymatini yo'qotadi. Biz buni inflyatsiya deb ataymiz.

Bugungi kunda muomaladagi pul miqdori markaziy banklar tomonidan nazorat qilinadi. 20-asrning ikkinchi yarmida odamlar o'zlariga kerakli narsalarni sotib olish uchun pul olib yurishlari shart emasligini tushunishdi. Pul to'g'risidagi ma'lumotlar bankdan bankka yuborildi. Shuning uchun pulni unga tegmasdan bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish mumkin edi.

Kredit kartalari

Bugungi kunda ko'proq odamlar kredit kartalar orqali narsalarni sotib olishadi. Haqiqiy pulni o'zingiz bilan olib ketishingiz shart emas. Kredit karta bilan bank hattoki o'z mijoziga biror narsa sotib olish uchun qarz beradi. Mijoz kichik qog'ozga imzo qo'yadi va do'kon sotuvchisi uni bankka jo'natadi so'ng, darhol pulini oladi. Bir necha hafta o'tgach, mijoz pulni bankka qaytarib beradi.

1991 yilda Gollandiyaning Maastricht shahrida Yevropa Ittifoqi rahbarlari yig'ilib, butun Yevropa uchun yagona valyuta yaratish to'g'risida kelishib oldilar.

2002-yil 1-yanvarda yevro Yevropa Ittifoqining o'n beshta davlatidan o'n ikkitasining rasmiy pul birligiga aylandi. Faqat Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Daniya o'zlarining eski valyutalarida qolishni xohlashdi.

1999- yilda banklar va fond birjalari Yevroni qo'llashni boshlaganlarida, u 1,17 AQSh dollariga teng edi. Ko'p o'tmay u zaiflashdi va 0,80 AQSh dollarigacha tushdi, lekin 2002- yildan buyon uning qiymati doimiy ravishda o'sib bordi, deyarli 1,30 AQSh dollarigacha.

Rangli yevro banknotalari avstriyalik Robert Kalina tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning narxi 5 evrodan 500 evrogacha bo'lib, ularda xarita, Evropa Ittifoqi bayrog'i, shuningdek, arklar, ko'priklar va derazalar mavjud. Bundan tashqari sakkizta tanga mavjud bo'lgan: 1 sentdan 2 evrogacha. Tangalarning bir tomoni hammasi bir xil, ikkinchi tomonida esa har bir mamlakatning o'ziga xos milliy dizayni mavjud.

Yevroni joriy etish tarafdorlari Yevropa valyutasi Yevropa davlatlari o'rtaсидаги савдо хажмини оширишини та'кидламоқда. Бу иттифоқни бирлаштириши ва уни янада mustahkam qilishi ham mumkin. Ko'pgina iqtisodiy ekspertlar, shuningdek, evro muhim xalqaro valyuta sifatida AQSh dollari bilan raqobatlasha olishini taxmin qilmoqdalar.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Razzoqov A. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi 2007.
2. Xoshimov P. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi 2005.
3. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi 2005.